



XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

XORAZM VILOYATINING DEMOGRAFIK HOLATI

*2023- yil
yanvar- iyun*



XORAZM VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

2023- yil 1-iyul holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Xorazm viloyatining doimiy aholisi soni 2023- yilning 1- iyul holatiga **1971,8** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **13,7** ming kishiga yoki **0,7 %**ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **653,0** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **33,1 %**), qishloq aholisi soni **1 318,8** ming kishi (**66,9 %**)ni tashkil etdi.

Doimiy aholi soni

1 971,8 *ming kishi*

Tabiiy o'sish

+14,5 *ming kishi*

Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

Shahar



33,1%

Qishloq



66,9%

Aholining tabiiy harakati, *ming kishi*




Urganch sh. Xiva sh. Bog'ot Gurlan Qo'shko'pir Urganch Hazorasp Tuproqqal'a Xonqa Xiva Shovot Yangiariq Yangibozor

■ Tug'ilganlar soni ■ Vafot etganlar soni —●— Aholining tabiiy o'sishi


Xorazm viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar

2023- yil yanvar-iyun




Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni

2023- yil 1- iyul holatiga




2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra, viloyat doimiy aholisi sonining **31,1 %**i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **58,8 %**i mehnatga layoqatli yoshdagilar va **10,1 %**i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi
2023- yil 1-iyul holatiga

Doimiy aholi sonining shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi
1- iyul holatiga, ming kishi

| | 2022- yil | 2023- yil | O'sish sur'ati, % da |
|--------------------|-----------|-----------|-------------------------|
| Viloyat bo'yicha | 1936,6 | 1 971,8 | 101,8 |
| <i>shaharlar :</i> | | | |
| Urganch sh. | 148,1 | 151,6 | 102,4 |
| Xiva sh. | 95,8 | 97,6 | 101,9 |
| <i>tumanlar:</i> | | | |
| Bog'ot | 170,6 | 173,9 | 101,9 |
| Gurlan | 153,1 | 155,6 | 101,6 |
| Qo'shko'pir | 176,8 | 179,8 | 101,7 |
| Urganch | 207,1 | 211,0 | 101,9 |
| Hazorasp | 199,9 | 203,7 | 101,9 |
| Tuproqqal'a | 57,2 | 58,5 | 102,3 |
| Xonqa | 192,9 | 196,2 | 101,7 |
| Xiva | 150,3 | 152,6 | 101,5 |
| Shovot | 175,2 | 178,1 | 101,7 |
| Yangiariq | 119,6 | 121,7 | 101,8 |
| Yangibozor | 90,0 | 91,5 | 101,7 |

Xorazm viloyati bo'yicha aholi zichligi


2023- yil 1- iyul holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi



Viloyatda 2023- yil 1- iyul holatiga 1 kvadrat kilometrda o'rtacha **326** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **6** kishiga ortgan (2022- yilda 1 kv.km.ga **320** kishi).

Shahar va tumanlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichligining eng yuqori ko'rsatkichi Urganch shahrida **5233** kishi, Xiva shahrida **2864** kishi, Urganch tumanida **473** kishi, Hazorasp tumanida **453** kishi, Xonqa tumanida **453** kishini tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Tuproqqal'a tumanida **37** kishi, Yangibozor tumanida **267** kishi, Yangiariq tumanida **302** kishi, Qo'shko'pir tumanida **333** kishini tashkil etgan.

QAYD ETILGAN TUG‘ILISHLAR



Shahar va tumanlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsiyenti

| | | |
|-------------|------|--------|
| Urganch sh. | 2333 | 31,2 ‰ |
| Hazorasp | 2197 | 21,8 ‰ |
| Urganch | 1996 | 19,2 ‰ |
| Bog‘ot | 1823 | 21,2 ‰ |
| Xonqa | 1770 | 18,3 ‰ |
| Gurlan | 1532 | 19,9 ‰ |
| Shovot | 1512 | 17,2 ‰ |
| Qo‘shko‘pir | 1360 | 15,3 ‰ |
| Yangiariq | 1073 | 17,8 ‰ |
| Xiva sh. | 934 | 19,4 ‰ |
| Xiva | 903 | 12,0 ‰ |
| Yangibozor | 864 | 19,1 ‰ |
| Tuproqqal‘a | 548 | 19,0 ‰ |

Tug‘ilganlarning taqsimlanishi

Yanvar- fevral

Shahar aholisi **2 418** Qishloq aholisi **4 104**



Yanvar- mart

Shahar aholisi **3 563** Qishloq aholisi **6 091**



Yanvar -iyun

O‘g‘il bolalar **9 734** Qiz bolalar **9 111**



Yanvar- iyun

Shahar aholisi **7 213** Qishloq aholisi **11 632**




2023- yil yanvar- iyun oylarida **18,8** ming nafar bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti **19,3** promilleni tashkil etdi hamda bu ko‘rsatkich 2022- yilga nisbatan **1,0** promillega oshganligi kuzatildi (2022- yilda **18,3** promilleni tashkil etgan).

VAFOT ETGANLAR



Shahar va tumanlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti



Vafot etganlarning taqsimlanishi

Yanvar-fevral



Yanvar-mart



Yanvar-iyun



Yanvar-iyun



2023- yilning yanvar-iyun oylarida **4,3** mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga o'lim koeffitsiyenti **4,5** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan **0,1** promillega kamayganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar-iyun oylarida **4,6** promille bo'lgan).


O‘limning asosiy sabablar bo‘yicha taqsimlanishi

2023- yil yanvar-iyun, kishi



2023- yilning yanvar- iyun oylarida qayd etilgan o‘lim holatining **41,9 %**i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **9,2 %**i – o‘simtalardan, **9,4 %**i – nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, **3,7 %**i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **4,3 %**i – ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, **0,9 %**i – yuqumli va parazitlar kasalliklardan, **30,6 %**i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

Nikohdan ajrashganlar soni va koeffitsiyenti




Soni
1274
kishi

Koeffitsiyenti
1,3
promille

Viloyat bo‘yicha nikohdan ajrashganlarning soni 2023- yilning yanvar-iyun oylarida **1274** kishini, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,3** promilleni tashkil etgan.

QAYD ETILGAN NIKOHLAR



Nikohlarning taqsimlanishi

Yanvar- favral




Yanvar- mart



Yanvar-iyun




Shahar va tumanlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti



2023- yilning yanvar-iyun oylarida **7,7** mingta nikoh qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **7,9** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan **0,5** promillega kamayganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar- iyun oylarida **8,4** promille bo'lgan).

NIKOHDAN AJRALISHLAR



Nikohdan ajralishlarning taqsimlanishi

Yanvar- fevral

| 2023 | 2022 |
|------|------|
| 450 | 343 |



Yanvar- mart

| 2023 | 2022 |
|------|------|
| 660 | 494 |




Yanvar- iyun

| 2023 | 2022 |
|-------|-------|
| 1 274 | 1 023 |



Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti

2023- yil yanvar-iyun, birlik



2023- yil yanvar-iyun oylarida **1,3** mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,3** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan **0,2** promillega oshganligi kuzatildi (2022- yil yanvar- iyun oylarida **1,1** promille bo'lgan).

AHOLI MIGRATSIYASI

(Doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar)


2023- yil yanvar- iyun oylarida viloyat bo'yicha doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar jami soni 3 925 kishini tashkil etdi.

Doimiy yashash maqsadida ko'chib ketganlar soni jami 4 681 kishini, migratsiya saldosini minus 756 kishini tashkil etdi. (2022- yil yanvar- iyun oylarida minus 644 kishini tashkil etgan).

Shahar va tumanlar bo'yicha ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni
kishi

| | 2022 - yil yanvar- iyun | | | 2023- yil yanvar- iyun | | |
|-------------------|----------------------------|-----------------------|------|---------------------------|-----------------------|------|
| | Ko'chib kelganlar | Migratsiya saldosi | | Ko'chib kelganlar | Migratsiya saldosi | |
| | | Ko'chib ketganlar | | | Ko'chib ketganlar | |
| Viloyat bo'yicha: | 3626 | 4270 | -644 | 3925 | 4681 | -756 |
| <i>shaharlar:</i> | | | | | | |
| Urganch sh. | 954 | 948 | 6 | 1013 | 1191 | -178 |
| Xiva sh. | 208 | 258 | -50 | 242 | 293 | -51 |
| <i>tumanlar:</i> | | | | | | |
| Bog'ot | 95 | 148 | -53 | 101 | 165 | -64 |
| Gurlan | 102 | 173 | -71 | 96 | 220 | -124 |
| Qo'shko'pir | 157 | 316 | -159 | 127 | 252 | -125 |
| Urganch | 891 | 645 | 246 | 1007 | 774 | 233 |
| Hazorasp | 112 | 510 | -398 | 155 | 440 | -285 |
| Tuproqqal'a | 354 | 156 | 198 | 362 | 198 | 164 |
| Xonqa | 102 | 260 | -158 | 104 | 263 | -159 |
| Xiva | 205 | 328 | -123 | 267 | 319 | -52 |
| Shovot | 131 | 229 | -98 | 127 | 260 | -133 |
| Yangiariq | 186 | 162 | 24 | 188 | 183 | 5 |
| Yangibozor | 129 | 137 | -8 | 136 | 123 | 13 |

KO'CHIB KELGANLAR




Ko'chib kelganlarning taqsimlanishi



Ko'chib kelganlar soni va koeffitsiyenti


2023- yil yanvar-iyun, kishi

| | | |
|-------------|------|--------|
| Urganch sh. | 1013 | 13,6 % |
| Urganch | 1007 | 9,7 % |
| Tuproqqal'a | 362 | 12,5 % |
| Xiva | 267 | 3,5 % |
| Xiva sh. | 242 | 5,0 % |
| Yangiariq | 188 | 3,1 % |
| Hazorasp | 155 | 1,5 % |
| Yangibozor | 136 | 3,0 % |
| Qo'shko'pir | 127 | 1,4 % |
| Shovot | 127 | 1,4 % |
| Xonqa | 104 | 1,1 % |
| Bog'ot | 101 | 1,2 % |
| Gurlan | 96 | 1,2 % |



2023- yilning yanvar-iyun oylarida **3,9** mingta ko'chib kelganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib kelish koeffitsiyenti **4,0** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan **0,2** promillega oshganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar- iyun oylarida **3,8** promille bo'lgan).

KO'CHIB KETGANLAR



Ko'chib ketganlarning taqsimlanishi

Yanvar- fevral



Yanvar-mart



Yanvar-iyun



Yanvar- iyun



Ko'chib ketganlar soni va koeffitsiyenti

2023- yil yanvar- iyun, kishi

| | | |
|-------------|------|--------|
| Urganch sh. | 1191 | 15,9 ‰ |
| Urganch | 774 | 7,4 ‰ |
| Hazorasp | 440 | 4,4 ‰ |
| Xiva | 319 | 4,2 ‰ |
| Xiva sh. | 293 | 6,1 ‰ |
| Xonqa | 263 | 2,7 ‰ |
| Shovot | 260 | 3,0 ‰ |
| Qo'shko'pir | 252 | 2,8 ‰ |
| Gurlan | 220 | 2,9 ‰ |
| Tuproqqal'a | 198 | 6,9 ‰ |
| Yangiariq | 183 | 3,0 ‰ |
| Bog'ot | 165 | 1,9 ‰ |
| Yangibozor | 123 | 2,7 ‰ |



2023- yilning yanvar- iyun oylarida **4,7** mingta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib ketish koeffitsiyenti **4,8** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan **0,3** promillega ko'payganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar- iyun oylarida **4,5** promille bo'lgan).

Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayiriladi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasalliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Ko‘chib kelganlar soni – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib kelish.

Ko‘chib ketganlar soni – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib ketish.

Aholining migratsion o‘sishi (farqi) – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

Demografiya va mehnat statistikasi bo‘limi

Tel: (62) 224-65-08